Og‘ir toifadagi yoshlar bilan ishlash chora-tadbirlari muhokama qilindi

// 10.10.2024
https://www.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/og-ir-toifadagi-yoshlar-bilan-ishlash-chora-tadbirlari-muhok

Bugun “O‘zkimyosanoat” AJning maxsus ishchi guruhi hamda Parkent tumani hokimi o‘rinbosari Baxtiyor Soatov va Yoshlar ishlar agentligi tuman bo‘limi vakili bilan uchrashuv o‘tkazildi.

Muloqot chog‘ida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston-2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi farmonida ko‘rsatilgan vazifalar ijrosini ta’minlash bo‘yicha olib borilayotgan ishlarga e'tibor qaratildi.

Xususan, Jamiyatga biriktirilgan 26 nafar yoshni og‘ir toifadan chiqarish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi ijrosi ko‘rib chiqildi.

“O‘zkimyosanoat” AJ Matbuot xizmati